

# **Yangi yo‘nalish bo‘yicha parvozlar: Namangan - Olmaota - Namangan**

**2022 26 March**

2022-yil 30-martdan boshlab “Sharqiy” xab loyihasi doirasida “Uzbekistan Airways” AJ Namangan - Olmaota - Namangan yangi xalqaro yo‘nalishi bo‘yicha muntazam aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yadi. Parvozlar haftada ikki marta chorshanba va shanba kunlari amalga oshiriladi.

Namangan - Olmaota yo‘nalishi bo‘yicha aviachipta narxi 996 863 so‘mdan (bagajsiz) va 1 072 574 so‘mdan (bagaj bilan), Namangan - Olmaota - Namangan yo‘nalishi bo‘yicha esa 1 669 213 so‘mdan (bagajsiz) va 1 795 398 so‘mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlari 26.03.2022 holatiga ko‘ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.